

NUTQ VA MASS-MEDIA

*Andijon davlat chet tillari instituti
Roman-german va slavyan tillari fakulteti,
Filologiya va tillarini o'qitish: nemis tili yo'nalishi
301-guruh talabasi **Isroilova Xilolaxon Usmonali qizi**
Ilmiy maslahatchi: **Kabulova U.S.***

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq va mass-media o'rtasidagi munosabatlar, ularning ahamiyati va zamonaviy jamiyatdagi roli ko'rib chiqiladi. Mass-media esa keng auditoriyaga axborot tarqatish uchun mo'ljallangan vosita to'plamidir. Maqolada nutqning turlari va uning ijtimoiy ta'siri, shuningdek, mass-media orqali tarqatiladigan axborotning jamiyatdagi fikrni shakllantirishdagi roli tahlil etiladi. Zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali nutq va mass-media o'rtasidagi bog'liqlik o'rganiladi. Umuman olganda, maqola nutq va mass-media orasidagi munosabatlarni chuqurroq egallash va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini beradi.

Kalit so'zlar: nutq, til, mass-media, og'zaki nutq, yozma nutq, rasmiy nutq, norasmiy nutq, ommaviy nutq, ommaviy axborot vositalari, raqamli media, podkast, video platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, internet saytlar, Facebook, Instagram, Twitter.

Аннотация: в данной статье рассматривается взаимосвязь речи и средств массовой информации, их значение и роль в современном обществе. Речь – средство общения между людьми, выраженное в устной и письменной формах. СМИ – это совокупность инструментов, предназначенных для распространения информации среди широкой аудитории. В статье анализируются виды речи и ее социальное воздействие, а также роль информации, распространяемой через средства массовой информации, в формировании общественного мнения. Связь между речью и средствами массовой информации укрепилась благодаря современным технологиям и социальным сетям. В целом статья дает возможность глубже понять взаимосвязь речи и средств массовой информации и эффективно их использовать.

Ключевые слова: речь, язык, средства массовой информации, устное слово, публичные выступления, средства массовой информации, цифровые медиа, подкасты, видеоплатформы, социальные сети, блоги, сайты, Facebook, Instagram, Twitter.

Abstract: this article examines the relationship between speech and mass media, their importance and role in modern society. Speech is a means of communication between people, expressed in oral and written forms. Mass-media is a set of tools

designed to spread information to a wide audience. The article analyzes the types of speech and its social impact, as well as the role of information disseminated through the mass media in forming public opinion. The relationship between speech and mass-media has become stronger through modern technologies and social networks. In general, the article provides an opportunity to gain a deeper understanding of the relationship between speech and mass media and to use them effectively.

Keywords: speech, language, mass media, spoken word, public speaking, mass media, digital media, podcast, video platforms, social networks, blogs, websites, Facebook, Instagram, Twitter.

Nutq va mass-media, zamonaviy ijtimoiy hayotning ajralmas qismidir. Har ikki tushuncha insonning fikrlarini, g‘oyalarini va his-tuyg‘ularini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Nutq – bu odamlarning bir-birlari bilan muloqot qilish usuli bo‘lib, u til orqali amalga oshiriladi. Mass-media esa keng auditoriya axborot tarqatish uchun mo‘ljallangan vositalar to‘plamidir. Ushbu maqola nutq va mass media o‘rtasidagi munosabatlar, ularning ahamiyati, ta‘siri va zamonaviy jamiyatdagi roli ko‘rib chiqiladi.

Nutq – bu insonlar orasidagi ma’lumotlarni ta‘minlaydigan asosiy vosita. Shuning uchun, “Kishilar chiroyli, mazmundor nutq masalasi bilan juda qadimdan qiziqib keladilar. Qadimgi Gretsiya (Yunoniston)da va Rimda nutq madaniyatining nazariy asoslari yaratildi”¹.

Nutq madaniyati yozma va og‘zaki shaklda bo‘ladi. Og‘zaki nutq madaniyati deganda, gapiruvchi tilidagi ravonlik, aniqlik, ma’nodorlik va latofat tushuniladi². “Yozma nutq og‘zaki nutqdan so‘ng yozuv ta‘sirida paydo bo‘lgan bo‘lib, adabiy tilning imloviy, punktuatsion, uslubiy qonun-qoidalariga bo‘ysinuvchi grafik shakldagi nutqdir”³. Bunga misol qilib, maqolalar, kitoblar, xatlar va boshqa yozuvlar orqali amalga oshiriladigan manbalarni keltirish mumkin.

Nutqning asosiy turlari quyidagilar:

1. **Rasmiy nutq:** Muloqotning rasmiy shakli bo‘lib, odatda davlat yoki tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.
2. **Norasmiy nutq:** Shaxsiy muloqotda ishlatiladigan nutq shakli.
3. **Ijtimoiy nutq:** Jamiyatda o‘zaro aloqalarni ta‘minlash uchun ishlatiladi.
4. **Ommaviy nutq:** Keng auditoriyaga mo‘ljallangan nutq, masalan, ommaviy tadbirlarda yoki televideniye dasturlarida.

¹ To‘ra Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993.

² Adiba Rasulova. Nutq texnikasi. –Toshkent, 2009.

³ Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.

Nutqning ahamiyati shundaki, u odamlarning fikrlashda, hissiyotlarini izhor qilishda va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Mass-media – bu keng auditoriyaga axborot tarqatish uchun ishlatiladigan vositalar to'plamidir. “Ommaviy axborot vositalari radio, matbuot televizor va internetni o'z ichiga oladi”.⁴ Mass-media axborotni tez va keng tarqatish imkonini beradi, bu esa ijtimoiy fikrni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Mass-media turlari:

1. **Ommaviy axborot vositalari:** gazeta, jurnallar, televidiniye kanallari.
2. **Raqamli media:** internet saytlar, ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Instagram, Twitter).
3. **Podkast va video platformalar:** axborotni audio yoki video formada tarqatish.

Mass-media jamiyatdagi voqealarni yoritishda, madaniyatni rivojlantirishda va siyosiy jarayonlarda ishtirok etishda muhim rol o'ynaydi.

Nutq va mass media o'rtasidagi munosabat juda murakkabdir. Mass-media orqali tarqatilgan nutq ko'plab odamlar tomonidan tinglanadi yoki o'qiladi. Bu axborotni ommaviyligini va ta'sirchanligini oshiradi. Ommaviy axborot vositalari orqali tarqalgan nutq ijtimoiy fikrni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Mass-media orqali tarqatilgan g'oyalar jamiyatda muhokama qilinadi va baholanadi.

Mass-media orqali taqdim etilgan nutq madaniyatni rivojlantirishda va ta'lim jarayonida yordam beradi. Ommaviy axborot vositalari orqali tarqatiladigan ilmiy maqolalar yoki ta'limiy dasturlar talabalar uchun muhim manba bo'lishi mumkin. Bu esa ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi.

“Nutq madaniyati jamiyat madaniy taraqqiyoti, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir”⁵. Bu insonlarning nutqini qanday qilib ishlatishlari, ularni qanday qilib ifodalashlari va qanday qilib qabul qilishlari bilan bog'liqdir. Ommaviy axborot vositalarida ishlatiladigan til madaniyatni aks ettiradi va jamiyatdagi qadriyatlarni belgilaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, nutq va mass-media zamonaviy hayotning ajralmas qismidir. Ular bir-birini to'ldiradiva ijtimoiy hayotni shakllantirish muhim rol o'ynaydi. Nutq insonning fikrlarini ifodalashda yordam beradi, mass media esa bu fikrlarni keng auditoriyaga yetkazish imkonini beradi. Ijtimoiy ta'sir, madaniyat va ta'lim sohalarida ham ularning ahamiyati katta. Shuning uchun, nutq va mass-media o'rtasidagi munosabatlarni chuqurroq anglash va ulardan samarali foydalanish jamiyatimizni yanada rivojlantirishga yordam beradi.

⁴ Ravshanova M. Ommaviy Axborot Vositalari.

⁵ Muhammedova S., Dadaboyev H., Sharipova O'. Nutq madaniyati. O'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent, 2007

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'ra Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1993
2. Adiba Rasulova. Nutq texnikasi. – Toshkent, 2009
3. Mahmudov N., Rafiyev A., I.Yo'ldoshev. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
4. Madina Ravshanova. Ommaviy axborot vositalari.
5. Muhammedova S., Dadaboyev H., Sharipova O'. Nutq madaniyati. O'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent, 2007